

# YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 261 (1322), 2024-yil 25-dekabr, chorshanba

www.yuz.uz f yuz.uznews yuz\_official yuz.uz\_news yuz



## O'ZBEKISTON PREZIDENTI SANKT-PETERBURGGA KELDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasiga keldi.

"Pulkovo" xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni Sankt-Peterburg gubernatori Aleksandr Beglov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

So'ng davlatimiz rahbari gubernator hamrohligida Isaakiy maydonida piyoda sayr qildi.

Tashrif doirasida O'zbekiston yetakchisi 25-26-dekabr kunlari Sankt-Peterburg shahrida MDH davlatlari rahbarlarining norasmiy uchrashuvi hamda Oliy Yevrosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig'ilishida kuzatuvchi maqomida ishtirok etadi.

O'ZA

## TA'LIM SIFATI BARCHA HUDUDLARDA TENG RIVOJLANTIRILISHI ZARUR

Davlatimiz rahbariga maktabgacha va maktab ta'limi tizimida 2025-yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar bo'yicha axborot berildi.

Shaxs tarbiyasining poydevori bo'lgan bu bo'g'inlarga davlatimiz tomonidan doimiy e'tibor qaratib kelinmoqda. Hududlarda yangi-yangi ta'lim maskanlari barpo etilib, mutaxassislar salohiyati oshirilmog'chi. Darslik va o'quv qo'llanmalari zamon talablariga moslab yangilanyapti.

Maktabgacha ta'lim tizimi ilg'or xorijiy tajribalar asosida yangicha rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi. So'nggi yillarda bolalar bog'chalari soni 8 barobar oshib, 38 mingtaga, qamrovi esa 27 foizdan 76 foizga yetdi.

Mamlakatimizda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy harakatga aylandi. Oxirgi yetti yilda 5 mingdan ziyod maktabda, bu yil 608 ta maktabda qurilish va ta'mirlash ishlari bajarildi. Yoshlarga ikkinchi xorijiy til va kasb o'rgatish kengaytirildi. Ilk bor 530 ta maktabda inklyuziv ta'lim yo'lga qo'yildi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri navbatdagi rejalari yuzasidan axborot berdi.

Qayd etilganidek, kelgusi o'quv yilida 100 dan ziyod maktablar tashkil etilib, 257 ming o'quvchi o'rni ochiladi. Davlat ta'lim dasturi xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtiriladi. Ikkinchi xorijiy til o'qitiladigan maktablar 420 taga, kasb-hunar o'rgatiladiganlari 400 taga yetkaziladi.

Dunyodagi ilg'or tajribalar, yangi uslublar amaliyotga kiritilmog'chi. Jumladan, bu yil 1 ming 500 ta umumta'lim maktabida yangi baholash tizimi joriy qilindi. Natijalar tahlilidan kelib chiqib, bu tajriba yana kengaytiriladi.

O'qituvchilarga malaka toifasini berishda ham raqamlashtirilgan tizimga o'tilgan. Endi toifasini oshirgan pedagoglar rag'batlantiriladi, ularga to'plagan baliga qarab 70 foizgacha ustama beriladi.

Davlatimiz rahbari malaka sinovlari tartibini takomillashtirish, sog'lom raqobat muhitini yaratib, barcha pedagoglarga teng imkoniyat berish zarurligini ta'kidladi.

Shu maqsadda keyingi yildan hududlardagi malaka oshirish markazlarida o'quv jarayonlari o'zgartiriladi. Bunda har bir o'qituvchining ehtiyojidan kelib chiqib, taqabalgashgan malaka oshirish tizimi joriy qilinadi. Malaka sinovidan

o'ta olmaganlar alohida dastur asosida qo'shimcha o'qitiladi. Viloyatlardagi 5 ta Pedagogik mahorat markazi zamonaviy sharoitda ish boshlaydi. Barcha markazlar situatsion o'quv texnikalari va virtual laboratoriya bilan jihozlanadi.

Ta'lim tashkilotlariga malakali rahbarlarni jalb etish va faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'shimcha manbalar hisobidan maktab va bog'chalari direktorlari hamda ularning o'rinbosarlarini moddiy rag'batlantirish taklifi bildirildi.

Ta'lim bilan tarbiya uzviy olib boriladi. O'zbekiston Prezidentining shu yil 15-noyabrda qaroriga muvofiq, o'quvchilarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash tizimiga e'tibor kuchaydi.

Yuqori sinflarda harbiy-vatanparvarlik darslari bir soatga ko'paytirildi. Ushbu yo'nalish o'qituvchilarni nufuzini oshirish uchun ularga harbiy unvon berish tartibi belgilandi.

Kelgusi o'quv yiliga bu fan bo'yicha yangi darsliklar ishlab chiqiladi, kasbiy salohiyati yuqori o'qituvchilar ishga jalb etiladi. Mudofaa vazirligi bilan birga 208 ta ta'lim maskanida "Jasorat maktablari" tashkil etiladi. Bu maktablarga tarbiyasi og'ir o'quvchilar ham qamrab olinadi.

Joriy yil 30-sentabr kuni sohaga doir yana bir muhim hujjat — maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha Prezident farmoni qabul qilindi. Unga muvofiq, 2025-yildan boshlab maktabgacha ta'lim tashkilotining direktori o'rinbosari lavozimi joriy etiladi. "Metodik mahorat soati", "Metodik mahorat kuni" kabi malaka oshirish shakllari tashkil qilinadi.

Keyingi yil 162 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti quriladi, 100 ta xususiy va mingta oilaviy bog'cha ochiladi. Bular orqali maktabgacha ta'lim qamrovi 78 foizga yetkaziladi. Maktabga tayyorlov guruhlari bilan boshlang'ich sinf o'quv dasturlarining uzviyligi oshiriladi.

Prezidentimiz sohani barcha hududlarda rivojlantirib, umumiy ta'lim sifati oshirish, bunda, ayniqsa, chekka tumanlarga alohida e'tibor qaratish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

O'ZA

## TIBBIYOT SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR HAMMANING HAYOTIDA AKS ETISHI KERAK

Prezident Shavkat Mirziyoyev huzurida sog'liqni saqlash sohasida qilingan ishlar va 2025-yilga mo'ljallangan ustuvor vazifalar ko'rib chiqildi.

Bu sohada yangi o'zgarishlari shahardan to chekka hududlarga, bolajonlardan tortib keksalargacha — hammaning hayotida aks etadi. Shu bois, unga ajratilayotgan byudjet mablag'lari har yili ko'paytirib borilmog'chi. Barcha ijtimoiy xizmatlar qatori tibbiyot ham xalqimizga yaqinlashtirilmoqda. Birlamchi bo'g'inda 18 mingdan ziyod tibbiy brigada tashkil qilingan.

Kasalliklarni aniqlash va davolash amaliyotiga zamonaviy texnologiyalar joriy etilmog'chi. Ixtisoslashgan tibbiy xizmatda diagnostika usullari 500 dan, davolash usullari esa 800 dan oshdi. Xususi tibbiyot rivojiga keng yo'l ochilgani tufayli xizmatlar tarmog'i va tanlash imkoniyati ko'paydi.

2024-yilda sohaga 36 trillion so'm ajratilgan edi. Bu o'tgan yilga nisbatan 25 foiz ko'pdir.

Birlamchi bo'g'inda 6 turdagi skringing tekshiruv yo'lga qo'yildi. Natijada 106 ming kishida qandli diabet, 194 ming nafarida yurak-qon tomir, 2 mingdan ziyod ayolda saraton, mingga yaqin bolada onkogematologik kasallik erta bosqichda aniqlandi.

Davolash sifati va samaradorligi alohida e'tibor talab qiladi. Shu maqsadda 2 mingdan ziyod mutaxassis xorijda qayta o'qitildi. Natijada hududlardagi yuqori texnologik operatsiyalar ulushi 61 foizga yetdi. 43 ta yo'nalishdagi 191 ta klinik protokol xalqaro andozalar asosida yangilandi.

Ixtisoslashgan markazlar va filiallarda bu yil 100 ming bemor intiyozli yo'llanma asosida davolandi. 7 ta ixtisoslashgan markaz sifat nazorati bo'yicha xalqaro akkreditatsiyadan o'tdi.

2025-yilda sog'liqni saqlash sohasiga 41 trillion so'm ajratilishi ko'zda tutilgan. Bu mablag' hisobidan yangi shifoxonalar tashkil etish va jihozlash, mavjud quvvatlarini kengaytirish, tibbiy ko'rik qamrovini kengaytirish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari bu sohada asosiy vazifa — birlamchi bo'g'inda tibbiyot sifati oshirish ekanini ta'kidladi. Buning

uchun vazirlik vertikalini hududlarda to'g'ri ishlatish, ayniqsa, chekka va og'ir tumanlarga e'tiborni kuchaytirish vazifasi qo'yildi.

Turkiyalik ekspertlar 6 ta hududda tibbiyot muassasalari faoliyati va ularda ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni o'rgandi. O'rganishlar natijasida aholiga ko'rsatilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatlarini tizimli isloh qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqilmog'chi.

Mutasaddilarga bu masalani chuqur tahlil qilib, birlamchi bo'g'in transformatsiyasi bo'yicha qaror loyihasini tayyorlash topshirildi.

Ushbu yo'nalish xodimlarining malaka oshirish dasturi takomillashtiriladi. Nazariy bilim va ko'nikmalarni egallashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishga bosqichma-bosqich o'tiladi.

Shuningdek, kelgusi yil tibbiyot xodimlarining oylik lavozim maoshlari oshiriladi. Oliy shifokorlarning mehnat samaradorligi asosida ustama to'lash tartibi joriy qilinadi.

Hududlarda bo'layotgan e'tibor izchil davom etiriladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlarida davlat tibbiy sug'urtasi amaliyotlari joriy etiladi. Markazlashgan laboratoriya xizmatlari kengaytiriladi. "Xaridlar markazi" va uning 13 ta hududiy filiali tashkil etilib, tibbiy jihozlardan foydalanishni elektron orqali nazorat qilindi.

Yana 35 ta yo'nalishda 400 ta tizimiy klinik protokol ishlab chiqiladi. 7 ta ixtisoslashgan markaz va 2 ta oliy ta'lim muassasasi xalqaro akkreditatsiyadan o'tkaziladi.

Yig'ilishda kadrlar masalasiga ham e'tibor qaratilib, tibbiy o'quv yurtlarida ta'lim sifati oshirish, uning amaliyot bilan hamohangligini mustahkamlash, bitiruvchilarning birlamchi bo'g'inda tajriba orttirishini tashkil etish muhimligi ta'kidlandi.

O'ZA

## 2024-YIL: ISLOHOTLAR SARHISOBI

### OLY TA'LIM TIZIMIDA YANGILANISHLAR DAVRI

YUTUQLAR, VAZIFALAR, ISTIQBOLLAR

Ko'z ochib yunguncha yana bir yil ortda qolmoqda. O'tgan muddatda mamlakatimiz tarixiga zarhal harflar bilan yoziladigan islohotlar amalga oshirildi. Birgina ta'lim tizimini rivojlantirish, ilm-fan hamda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlar strategik maqsadlarga yo'naltirilgan keng ko'lamli yangilanishlar natijasidir. Jumladan, Prezidentimiz rahbarligida shu yil 5-fevralda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi o'qitish sohasi tubdan yangilanishi, qator izchil islohotlar amalga oshirilishi uchun puxta zamin bo'ldi.



Bu jarayonda xalqaro tajribaga asoslanib, ta'lim sifati oshirish, zamonaviy talablarga javob beradigan raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmog'chi. Ayniqsa, o'qitish jarayonini dasturi asosida mazmun jihatidan yaqin bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari 40 foizgacha maqbul-lashtirildi. Buning natijasida 306 ta yo'nalish 183 tagacha qisqartirilib, ta'lim yo'nalishlari zamonaviy talablar va iqtisodiy ehtiyojlariga muvofiqlashtirildi. Bunday yondashuv, bir tomondan, resurslarni oqilona taqsimlashga, ikkinchi tomondan, talabalarga sifati va maqsadli ta'lim berishga xizmat qilmoqda.

2024-yilda yangi O'zbekiston ta'lim tizimida o'qitish sifati oshirish hamda ixtisoslashuvni yanada chuqurlashtirish maqsadida jiddiy qadamlar qo'yildi. Xususan, xalqaro reytinglarning yetakchi 300 taligiga kirgan oliy ta'lim muassasalari dasturi asosida mazmun jihatidan yaqin bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari 40 foizgacha maqbul-lashtirildi. Buning natijasida 306 ta yo'nalish 183 tagacha qisqartirilib, ta'lim yo'nalishlari zamonaviy talablar va iqtisodiy ehtiyojlariga muvofiqlashtirildi. Bunday yondashuv, bir tomondan, resurslarni oqilona taqsimlashga, ikkinchi tomondan, talabalarga sifati va maqsadli ta'lim berishga xizmat qilmoqda.

Davomi 3-beta

## BUYUK BRITANIYA: YANGI O'ZBEKISTONGA YANGICHA NIGOH

Ko'p ming yillik qadriyatlarimizni asrab-avaylash, buyuk ajdodlarimizdan qolgan bebaho ma'naviy meros — qadimiy noyob yozma manbalarni chuqur tadqiq etish va ilmiy iste'molga kiritish yangi O'zbekistonning davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan muhim masalalardan hisoblanadi.

Bu borada biz, tadqiqotchilar, mutasaddi idora va tashkilotlar vakillariga Prezidentimizning 2017-yil 24-maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda 2022-yil 10-fevraldagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari muhim dasturlamal bo'lmoqda.

Shu o'rinda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bunyod etilayotgan O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi, shuningdek, buyuk allomalarimiz nomlari bilan ataladigan xalqaro tadqiqot markazlari tomonidan xorijiy

mamlakatlardagi bir qancha ilmiy-ma'rifiy muassasalar, taniqli olimlar bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilib, birgalikda ko'plab loyihalar amalga oshirilayotganini ta'kidlash joiz.

Jumladan, bundan bir oz muqaddam Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari vakillari Saudiya Arabistoni va Turkiyada bo'lib, o'z faoliyatlariga doir taqdimotlar o'tkazgan, turdosh tashkilotlar bilan kelishuvlarga erishgan edi.

Davomi 5-beta

## Yangi O'zbekiston g'oyasi



## BESHTA MUHIM TASHABBUS JAMIYATIMIZNING YANGI QIYOFASIGA ASOS SOLMOQDA

Ko'pchilik bir iborani eshitgan: "Do'sting kimligini ayt, men sening kimligingni aytib beraman". Buni jamiyat misolida tahrirlasak, balki shunday bo'lar: "Mamlakating yoshlari nima bilan bandligini ayt, men xalqing kelajagi qanday bo'lishini aytib beraman".

Darhaqiqat, bugun yoshlik o'z holiga tashlab qo'yiladigan davr emas, uning poyloqchisi, xo'randsi ko'p. Bu esa nima uchun insonparvarlik tamoyillariga sodiq davlatlarda tarbiya faqat ma'naviyatning ishi emas, balki siyosat darajasidagi masalaga aylanayotganini ro'yroq ochib beradi.

Ilgari tarbiyani nazorat qilish oson bo'lgan. Masalan, farzand nima qilyapti, kimlarga muxlis, ich-ichidan deb o'ylaysizmi? Gapimiz muaddosi nima? Bugun ma'naviyatni qattiqqo'llik bilan singdirib bo'lmay qoldi. Uni farzand qalbiga muttasil targ'ibot bilangina joylash mumkin.

Checklov yo'q. Endi aytgunchi, farzandingiz undan nima maqsadda foydalanayotganini to'g'ri nazorat qila olaman deb o'ylaysizmi? Gapimiz muaddosi nima? Bugun ma'naviyatni qattiqqo'llik bilan singdirib bo'lmay qoldi. Uni farzand qalbiga muttasil targ'ibot bilangina joylash mumkin.

Davomi 6-beta

# XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT

## INSONPARVAR BOSHQARUVNI TA'MINLASHDA MAHALLALARNING O'RNI ORTMOQDA

O'zbekistonda ijtimoiy davlat qurish strategik maqsad etib belgilangan. Bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yogba chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish demakdir. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda mustahkamlangan ushbu tamoyil asosida mamlakatimizda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.



Jovdat INOG'OMOV, O'zbekiston mahallalari uyushmasi raisining birinchi o'rinbosari

boshlandi. Bu borada, ayniqsa, aholini ijtimoiy himoya qilish, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilayotganini alohida ta'kidlash o'rinni. Xususan, kam ta'minlangan oilalarga nafaqa belgilash asosari aniq qilib qo'yildi. "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi ishga tushirilib, kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko'rsatish boshlandi. Bu jarayonda ochiqlik, tenglik, adolat tamoyillariga qat'iy amal qilish vazifasi belgilandi.

"Imkoniyati cheklangan kishilar" degan tushuncha davlat va jamiyatning nogironlarga bo'lgan tor, bir yoqlama munosabatini ifodalab kelgan bo'lsa, yangi islohotlar davrida, avvalo, qonunchilik o'zgarib, "nogironligi bo'lgan shaxslar" tushunchasi yuzaga keldi. Shu asosida davlat va jamiyat nogironlarga imkoniyati cheklanganlar deb emas, balki shaxs sifatida munosabatda bo'lisga o'tdi. Bu munosabat uning huquqlari tan olingani va ro'yogba chiqishi uchun imkoniyat yaratilayotganini anglatadi.

Ana shunday muhim islohotlar samarasi o'laroq, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lami va turlarini kengaytirishga erishilmoqda. Jumladan, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish xarajatlari 2 barobar oshib, kam ta'minlangan nafaqa oluvchi oilalar qamrovi 5 barobar ko'paydi. Nogironligi bo'lgan shaxslar va nogironligi bo'lgan bolalarning parvarishi bilan band bo'lganlar uchun yangi nafaqa turlari joriy etildi. Bu raqamlar nafaqaga muhtoj oilalar soni organigini emas, balki ehtiyojmand oilalarga ijtimoiy himoya yetib borayotganini anglatadi.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda mehnatga layoqatsiz va qilinib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi.



Bu jarayonda, eng avvalo, ijtimoiy xizmat va yordamni mahalla darajasida tashkil etishga e'tibor qaratildi. Barcha hududlarda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari ochilib, mahallalarda 102 ta ijtimoiy xizmat yo'lga qo'yildi.

Masalan, oldin odamlar birgina protez uchun har xil komissiyalar va poliklinikada ikki oy sarson bo'lgan bo'lsa, hozir bu masala ikki haftada mahallaning o'zida hal bo'lmoqda. Natijada 100 ming odamning og'iri yengil bo'ldi. Yoki bo'lmasa, nogironligi bor bolalarga qarab turish xizmati yo'lga qo'yilib, murojaatlar mahallada qabul qilinaypti. Bu birgina joriy yilning o'zida 700 nafar ota-onaning ishlashiga sharoit yaratdi.

vakili kirishidan qat'i nazar, oiladagi muammo va imkoniyatlar aniqlanib, "ijtimoiy portreti" chiziladi. Yordamdan so'ng xonadonda nima o'zgarгани monitoring qilib borilmoqda. Ayni yo'nalishdagi ishlar tufayli ijtimoiy xodimlar uyama-uy yurib, shu yil reyestrda bo'lmagan yana 95 ming muhtoj shaxsga yordam ko'rsatdi. 51 ming nafariga nogironlik belgilandi, 26 ming nafari protez oldi. Yotib qolgan 4 ming yolg'iz keksa aniqlanib, ularga uyda parvarish tashkil etildi. Nogironligi bor 5 ming bola bog'cha-maktabga joylashdi. Bunday manzilli ishlar tufayli Xalq qabulxonalarini va hokimliklarga ijtimoiy xizmat va yordam bo'yicha murojaatlar 35 foiz kamaydi.

Bu yo'nalishda mahallalarda ham keng qamrovli ishlar amalga oshirilyapti. Xususan, joriy yilning 11 oyi davomida 25 ta yo'nalish va 401 ta ko'rsatkich asosida 9452 ta mahalla, 208 ta tuman (shahar), 14 ta hudud hamda respublika balansi shakllantirildi. Bu orqali aholi muammolarini bartaraf etish bo'yicha "yo'l xaritasi", "ombor kitobi" va bandlik dasturi ishlab chiqildi.

Mazkur jarayonda "mahalla yetiligi" va banklar hamkorligida 754,5 mingdan ziyod aholi bandlegi ta'minlandi. Sayxunobod, Zarbdor, G'ijduvon va Uychi tumanlari tajribalari asosida 4,7 millionta xonadonda tomorqadan samarali foydalanish, "Bir mahalla — bir mahsulot" tamoyili bo'yicha 2,8 millionta xonadonda qo'shimcha daromad olish imkoniyati yaratildi. "Yettilik" a'zolari uyama-uy yurishi natijasida infratuzilma bilan bog'liq aniqlangan 278 mingdan ortiq muammobdan 93 foizi hamda aholining ijtimoiy masalalariga oid aniqlangan 201,5 mingga yaqin muammobdan 95 foizi hal etildi.

Yana bir muhim jihati, mahalladagi barcha ijtimoiy xizmatlarni bosqichma-bosqich ijtimoiy xizmat ko'rsatish shartnomasi orqali taqdim etish yo'lga qo'yildi. Bu jarayonda xizmat ko'rsatuvchi ham, yordam oluvchi ham o'ziga majburiyat oladi. Endi nafaqa oluvchilar ro'yxatiga, birinchi navbatda, nogironligi bor, ota-onasi yo'q, boquvchisini yo'qotgan, kasalligi va boshqa sababga ko'ra uzoq muddat ishlay olmaydiganlarning oilalari kiritilmoqda. Boshqa

fuqarolarni "ijtimoiy reyestr"ga kiritishda ularning faqat daromadi emas, balki xarajatlari ham baholanyapti.

### Farovonlikka yetaklayotgan dastur va loyihalar

Har bir mamlakat rivojlanish jarayonida kambag'allikni qisqartirish bosqichidan o'tadi. O'zbekiston ham 2020-yilda aholining muayyan qismi kambag'al ekanini tan olib, ularga madad berishga kirishdi. Moliyaviy-tashkiliy choralar ko'rib, tizim joriy qilindi. Bu o'z samarasini beryapti. Xususan, uzoq yillar og'ir vaziyatda bo'lgan 3 milliondan ziyod odamning sharoiti yaxshilandi. Kambag'allik darajasi 17 foizdan 11 foizga tushdi.

Kelgusi uch yilda kambag'allik darajasini 7 foizga tushirish maqsad qilingan. Shu bois, ayni yo'nalishga doir tahlillardan kelib chiqib, kambag'allikni aniqlash mezonlari va manzilli fuqarolarni baholash, bir o'g'iz "Ishing qanday?", "Qiyalmayapsanmi?", "Yurtga qayt, senga ko'mak beramiz", deyshingning o'zi aslida katta muruvvat.

Shundan kelib chiqib, "yettilik" a'zolari anketasirovnomasida migratsiyadagi fuqarolarni xatlovdan o'tkazdi. Migratsiya balansi shakllantirilib, "Raqamli mahalla" platformasiga kiritildi. Migratsiyadagi 1,2 million fuqaroning 86 foizi bilan onlayn muloqot qilinib, qariyb 419 ming nafari yurtga qaytarildi, yarmidan ko'pi ishga joylashtirildi. Bu orqali olis yurtda oila sog'inchi bilan ishlash yurgan shuncha fuqaroning ro'zg'origa quvonch kirdi.

Umuman olganda, o'tayotgan har bir kun sa'y-harakatlarimizni yanada kuchaytirish, xalq roziligi yo'lida siddiqdildan mehnat qilish fursatidir. Zero, dushmamlarimiz aytganidek, bu dunyoda odamlarga ezigulik ulashib yashashdan ko'ra ulug' va savobli ish yo'q. Ana shu hikmatga amal qilib yashasak, ishimizda natija bo'ladi, xalqimizning ishonchini albatta oqlaymiz.

Keling, ayni yo'nalishdagi ishlarga to'xtalishdan oldin ushbu tamoyilning Konstitutsiya darajasida mustahkamlanish zarurati, ilgari mavjud bo'lgan "davlat — jamiyat — shaxs" paradigmasining "inson — jamiyat — davlat" tamoyiliga o'zgartirilgan xususida qisqacha fikr yuritsak.

Mahalla tuzilmasida suvagi qotgan mas'ul sifatida aytishim mumkinki, mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasidagi tarixiy islohotlar boshlanguncha qadar jamiyatimizda inson qadri tushunchasi, xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak degan tamoyil, yurdoshlarimizning bugungi yashayotgan kunidan roziligiga erishish kabi maqsadlar to'g'risida hatto tasavvur ham yo'q edi. Agar biror vakolat yoki mablag' nuqtayi nazaridan qo'l-oyoqsiz mahalla tizimini hisobga olmaganda, davlat bilan oddiy xalqning muloqoti butunlay cheklangan holatda edi.

O'z navbatida, davlat hokimiyatining birdan bir manbabi bo'lgan xalq bilan ta'qild o'rtadagi uzilish, ularni tinglash, taklif va tashabbuslarini eshitish, masalalariga shundan kelib chiqib yechim izlash mexanizmlari yo'qligi hududlarda ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirdi. Eng yomoni, odamlarimizda yurt taqdiri, jamiyat rivojiga nisbatan daxldorlik hissi keskin pasaydi, har qanday masalani "davlat hal qiladi" degan qarash ustuvorlashdi. Iqtisodiy barqarorlik, aholi farovonligining asosi bo'lgan tadbirkorlik, xususiy biznesga qo'yilgan sun'iy cheklolvar, infratuzilma bilan bog'liq muammolar shu yo'nalishda ishlashga moyilligi bo'lgan, shunga yarasha salohiyatga ega ko'plab yurdoshlarimiz qalbiga hadik soldi, shijoatini qayrdi.

Shu bois, 2017-yildan tizimli davom etib kelayotgan shiddatli islohotlar, tarixiy yangilanishlar inson qadriini ulug'lash, xalq bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotni yo'lga qo'yishdan



yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand qatлами huquqlari davlat himoyasida bo'lishi belgilangan sohadaq islohotlarni yanada kengaytirishga zamin yaratdi. Shunga muvofiq, 2023-yil 1-iyunda aholiga sifatlil ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish bo'yicha farmon qabul

"Mahalla yetiligi" tarkibida ijtimoiy xodim lavozimi joriy etilgani ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Ular oilalar bilan alohida ishlab, muhtojlarning har biri bo'yicha individual ijtimoiy xizmatlar dasturini yuritmoqda. Bu borada yagona savolnomaga joriy qilinib, xonadonga "mahalla yetiligi"ning qaysi

25-26-dekabr kunlari tashrif doirasida mamlakatimiz yetakchisi MDHga a'zo davlatlar rahbarlarining norasmiy sammiti va Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig'ilishida ishtirok etadi.

## O'ZBEKISTON MINTAQAVIY SHERIKLIKNI IZCHIL MUSTAHKAMLAMOQDA

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida bo'ladi

Davlatimiz rahbari har yili MDHning an'anaviy sammitlarida ishtirok etib, O'zbekiston Hamdo'stlik maqsad va vazifalariga sodiqligini namoyish qilmoqda. Bunday formatlarda ishtirok etish respublikamizga yaqin sheriklar bilan faol hamkorlik, kun tartibidagi dolzarb masalalarni birgalikda muhokama qilish va o'zaro munosabatlarni yanada rivojlantirishga qaratilgan takliflarni ilgari surish imkonini beryapti. O'zbekiston ishtirokchilari davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shish orqali MDH doirasida faol pozitsiyani egallab kelmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan muhim tashabbuslarni muntazam ilgari surib kelayotir. O'zbekistonning MDH doirasidagi ustuvor yo'nalishlari qatoriga integratsiyani chuqurlashtirish, qo'shma loyihalarni ko'paytirish va mintaqada barqarorlikni ta'minlash kiradi.

savdo-iqtisodiy sheriklik muhim o'rin tutadi. Respublika eksport-import munosabatlarni faol rivojlantirib, milliy mahsulotlarni sotish bozorini kengaytirishda, mintaqaning transport-logistika infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan loyihalarda faol ishtirok etmoqda. MDH davlatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aholi farovonligi darajasini oshirish hamda O'zbekistonning ishonchli sherik sifatidagi mavqeiini mustahkamlashda muhim omil bo'lyapti. O'zbekistonning MDH bilan aloqalari Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YOII) bilan hamkorligiga chambarchas bog'liq. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi Bojxona ittifoqi va Yagona iqtisodiy makon negizida tuzilgan xalqaro integratsion iqtisodiy birlashmadir. Ittifoq 2014-yil 29-mayda Ostona shahrida (Qozog'iston) Belarus, Qozog'iston va Rossiya

davlat rahbarlari tomonidan imzolangan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi to'g'risidagi shartnomaga kuchga kirganidan so'ng 2015-yil 1-yanvardan ish boshlandi. 2015-yilda Armaniston va Qirg'iziston shartnomaga qo'shildi.



O'zbekiston Bosh vaziri boshchiligidagi YEII mamlakatlari va Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan hamkorlik bo'yicha idoralararo ishchi guruh tuzilgan. Ishchi guruh YOII bilan o'zaro hamkorlikni muvofiqlashtiradi, iqtisodiy aloqalarni tahlil qiladi va hamkorlikni chuqurlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

O'zbekiston 2020-yilda YOII'da kuzatuvchi davlat maqomini olgan. Kuba va Moldova ham YOII'da xuddi shunday maqomga ega. Birlashma nizomiga ko'ra, kuzatuvchi maqomiga ega davlatlar YOII organlari yig'ilishlarida qaror qabul qilish huquqisiz ishtirok etishi, shuningdek, Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasiga mamlakat vakilini tayinlashi mumkin.

O'zbekistonning YOII bilan hamkorligini ushbu formatda rivojlantirish milliy manfaatlariga javob beradi va teng huquqlik, shuningdek, ishtirokchilari davlatlar tomonidan bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslanadi. O'zbekiston Prezidenti mamlakatimiz kuzatuvchi maqomini olganidan beri mazkur birlashma oliy kengashining olitva yig'ilishida qatnashdi. O'zbekiston Bosh vaziri boshchiligidagi YOII mamlakatlari va Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan hamkorlik bo'yicha idoralararo ishchi guruh tuzilgan. Ishchi guruh YOII bilan o'zaro hamkorlikni muvofiqlashtiradi.

iqtisodiy aloqalarni tahlil qiladi va hamkorlikni chuqurlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi. 2024-yil 1-oktabrda O'zbekiston hukumati va Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi o'rtasida 2024-2026-yillarga mo'ljallangan Qo'shma harakatlar rejasini imzolandi. YOII platformasida kuzatuvchi davlat sifatida ishtirokchi orqali O'zbekiston muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda. Ittifoqqa a'zo barcha davlatlar bilan faol hamkorlik qilaypti, shuningdek, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarni rivojlantirishda. Ushbu omillar esa barqaror o'sish sur'atlarini ko'rsatayotir. Muxtasar aytganda, O'zbekiston Prezidentining MDH va YOIIning Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tadigan sammitlarida ishtirok etishi o'zaro manfaatli aloqalarni kengaytirishga yangi sur'at bag'ishlab barobarida Hamdo'stlik va birlashma makonidagi davlatlar hamda xalqlar o'rtasidagi do'stlik rishlarini mustahkamlash yo'lidaq yanada bir amaliy qadam bo'lib xizmat qiladi.

2024-YIL: ISLOHOTLAR SARHISOBI

# OLY TA'LIM TIZIMIDA YANGILANISHLAR DAVRI

## YUTUQLAR, VAZIFALAR, ISTIQBOLLAR



**Qo'ng'iro'tboy SHARIPOV,**  
oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

**Boshlanishi 1-betda**

Shuningdek, o'quv jarayonini tizimlashtirish va zamonaviylashtirishga qaratilgan bu o'zgarishlar talabalarga tanlagan sohasi bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarni egallash imkonini beradi. Shu bilan birga, yangi o'quv reja va dasturlari asosida o'qitish orqali yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Yangilangan "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari. Asosiy qoidalar"da kredit-modul tizimiga mos ravishda auditoriya va mustaqil ta'lim nisbati 50/50-40/60 foizlarda belgilandi (oldingi standart bo'yicha bu nisbat 90/10 foizni tashkil qilardi). O'quv jarayonida tanlov fanlar salmog'i oshirildi hamda talabalar individual ta'lim trayektoriyalari joriy etildi. Jumladan, muhandislik-texnika sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarining 45 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishidan bir-biriga yaqin turdosh ta'lim yo'nalishlari birlashtirildi. 32 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi hamda 69 ta magistratura mutaxassisligi uyg'unlashtirilib, 66 ta magistratura mutaxassisligi qoldirildi.

Muhandislik sohasida mamlakatimizda yetakchi oliy ta'lim muassasasi bo'lgan Toshkent davlat texnika universiteti tomonidan Drezden texnika universiteti (Germaniya) va Nagoya universiteti (Yaponiya) dasturlari asosida muhandislik ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasini yo'naltirishga moslashtirilgan holda ishlab chiqildi.

2024/2025-o'quv yilidan boshlab talabalarda amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida ishlab chiqarish amaliyoti takomillashtirilishi belgilangan. Ushbu jarayonda 15 haftalik malakaviy amaliyotni tashkil etish rejalashtirilgan bo'lib, bu talabalar nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan muhim qadamdir.

Muhandislik sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari tomonidan ularga birlashtirilgan korxonalar va tashkilotlar bazasida o'quv jarayoni dual ta'lim tizimi asosida bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Ushbu tizim bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining o'ziga

xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etildi. Bu amaliyotni ishlab chiqarish jarayoni bilan yanada mustahkam bog'lash va mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Misol uchun, 2024/2025-o'quv yilidan boshlab, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida 3- va 4-kurs talabalari uchun o'quv jarayoni dual ta'lim tizimi asosida tashkil etiladi. Bu jarayon ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, institutga birlashtirilgan korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. O'qitish jarayonini takomillashtirish maqsadida o'zaro hamkorlik shartnomalari asosida Savdo-sanoat palatasi, "O'zto'qimachilik sanoati", "O'zcharmsanoat" va boshqa uyushmalar tarkibidagi 20 dan ortiq korxonalar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Dual ta'lim tizimiga muvofiq, o'quv jarayoni ikki qismga bo'linadi: 3 kun institutda nazariy bilim olinsa, qolgan 3 kun ishlab chiqarishda amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi. Bu yondashuv talabalar nazariy bilim va amaliy ko'nikmasini uyg'unlashtirib, mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar etib tayyorlashga xizmat qiladi.

Joriy va kelgusi yilgi oliy ta'limdagi tendensiyalardan yana biri muhandislik, texnika sohalarda kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishdir. Bunda hududiy joylashuvi va kadrlar tayyorlash ixtisoslashuvi jihatidan yaqin bo'lgan oliy ta'lim muassasalari o'zaro birlashtirish orqali optimallashtirilmoqda. Jumladan, 11 ta oliygoh negizida 4 ta yangi universitet tashkil etildi. 2024-yili Termiz muhandislik-texnologiya instituti hamda Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutini birlashtirish orqali ular negizida Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, Andijon mashinasozlik instituti, Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti hamda Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Andijon fakulteti negizida Andijon davlat texnika instituti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Qarshi filiali hamda Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali negizida Qarshi davlat texnika universiteti tashkil etildi.

Kelgusi yillarda ham muhandislik sohasidagi oliy ta'lim muassasalarini yiriklashtirish va xalqaro talabalar mos o'qitish dasturlarini kengaytirishni davom ettiramiz. Bu, ayniqsa, sanoat va texnika sohasidagi mutaxassislarni sifatlari tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, muhandis kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, "tarmoq — korxonalar — oliygoh" janri asosida ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini yo'lga qo'yish maqsadida muhandis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi hamda respublika oliy ta'lim muassasalarida oliy muhandislik maktablari faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar loyihasi ishlab chiqildi.

Buxoro muhandislik-texnologiya institutida "O'zbekneftgaz" AJ bilan hamkorlikda "Kiberneftgaz" muhandislik maktabi tashkil etildi. "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti" milliy tadqiqot universiteti Xitoyning Qingdao agrar universiteti bilan xalqaro

loyihalar doirasida "Barqaror rivojlanish" muhandislik maktabi faoliyatini yo'lga qo'ydi.

O'zbekistondagi 7 ta oliy ta'lim muassasasining 39 ta ta'lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o'tkazildi. Bu jarayon ushbu dasturlarning jahon standartlariga mosligini tasdiqlab, talabalarga zamonaviy va raqobatbardosh bilim olish imkonini beradi. Xalqaro akkreditatsiyaga ega diplomlar xorijda keng tan olinishi tufayli bitiruvchilar xalqaro mehnat bozorida yuqori mavqega ega bo'lishi mumkin.

Shuningdek, yetakchi OTMlarning 500 taligidan o'rin olgan 9 ta nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasasi bilan hamkorlikda 15 ta qo'shma ta'lim dasturi yo'lga qo'yildi. Bunday dasturlar talabalarga ikki tomonlama diplom olish, nufuzli universitetlarda o'qish hamda xalqaro tajribaga ega bo'lish imkoniyatini taqdim etadi. Qolaversa, ushbu qo'shma dasturlar talabalar global fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, yangi texnologiya va innovatsiyalarni o'zlashtirishga yo'l ochadi. Bu qadamlar nafaqat talabalar va oliyog'ohlar, balki mamlakatimizning umumiy taraqqiyoti uchun ham katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari xalqaro reytinglarda mavqei mustahkamlab, o'qitish sifati va nufuzini yanada oshirmoqda. Yurtimizning ikki nufuzli oliygohi dunyodagi eng obro'li reytinglardan biri bo'lgan QS xalqaro reytingi ro'yxatiga kirdi. Jumladan, "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti" milliy tadqiqot universiteti reytingda 547-o'rinni



mavqei mustahkamladi. O'zbekiston Milliy universiteti 1001-1200-o'rinlar orasidan, Toshkent axborot texnologiyalar universiteti 1501+ toifadan joy oldi. Shuningdek, 48 ta oliygoh "da'vogar" maqomi bilan ro'yxatga kiritilgani ham ularning xalqaro reytinglarda o'rini mustahkamlashga intilayotganini ko'rsatadi.

yutuqlar O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar va investitsiyalar samarali amalga oshirilayotganidan dalolat bermoqda. Kelgusida yurtimizdagi 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining birinchi 1000 taligiga kiritish maqsad qilingan bo'lib, bu yoshlarning jahon standartlariga mos bilim olish imkoniyatini kengaytirib, mamlakatning global akademik maydondagi nufuzini oshiradi.

Ta'lim sifati va mutaxassislar malakasini oshirish borasidagi ishlar ham mazkur maqsadlariga xizmat qiladi. Xususan, joriy yilda 4970 professor-o'qituvchi xorijda malaka oshirish uchun yo'llanma oldi. Mamlakatimizda ta'limning xalqaro darajadagi talabalariga muvofiqligini ta'minlash uchun xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilar ulushini 20 foiz oshirishni rejalashtirganimiz. Bu jarayon mutaxassislar xalqaro tajriba almashishi va yangi bilimlarni egallashi, zamonaviy ta'lim usullari va innovatsiyalarni o'zlashtirishga xizmat qiladi. Ular chet elda ta'lim va tadqiqotlar sohasidagi eng so'nggi tendensiyalarni o'rganib, O'zbekistonga qaytgach, oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Shuningdek, xorijlik 2500 dan ziyod professor-o'qituvchi O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga jalb etildi. Bu talabalarga xalqaro darajada bilim va ko'nikmalarni egallash imkonini taqdim etmoqda. Yoshlar nafaqat mahalliy, balki xalqaro tajribalardan foydalanishi mumkin. Bu jarayonni rivojlantirish maqsadida yurtimiz oliy ta'lim muassasalariga jalb qilingan xorijlik professor-o'qituvchilar ulushini 12 foizga yetkazishni maqsad qilganimiz. Toki talabalar xalqaro bilim va tajribadan xabardorlik imkonini yanada kengaytsin.

Talabalar bilim olishi va akademik yutuqlarga erishishi uchun oliyog'ohlarimiz infratuzilmasi zamonaviy bo'lishi muhim. So'nggi yillarda qilingan ishlar natijasida oliy

ta'lim muassasalari infratuzilmasi sezilarli darajada mustahkamlandi. Joriy yilda davlat oliy ta'lim muassasalarida 27 ming 364 o'rinni talabalar turar joyi va 10 ming 500 o'rinni o'quv binolari barpo etildi. Bu yoshlarga qulay va barqaror ta'lim muhiti yaratish, ularning talabalar shaharchasidagi hayotini ancha yengillashtirishga xizmat qiladi.

Talabalarga xizmat ko'rsatishda zamonaviy axborot texnologiyalari bilan faoliyatni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Davlat oliy ta'lim muassasalarining barcha bosqich talabalarini talabalar turar joyiga joylashtirish to'liq raqamlashtirildi. Bu jarayon avtomatlashtirilishi natijasida talabalar o'z yashash joyini masofadan band qilish va joylashish imkoniga ega bo'ldi. Shuningdek, talabalar va ota-onalarning vaqtini tejash, jarayonning aniq, o'z vaqtida amalga oshirilishi bu yo'nalishdagi korruptsiya holatlarining oldini olishga xizmat qilmoqda.

2025-yil yurtimizda "Atrof-muhitni asrash va yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi. Yil nomidan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimida ham qator tashabbuslarga qo'l urishni rejalashtirdik. Ushbu yil dasturida "yashil" texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko'kalamzor hududlarni keskin ko'paytirish, Orol foydasi oqibatlarini yumshatish, chiqindilar muammosini hal qilish, eng muhimi, aholi salomatligini mustahkamlash kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etishi zarurligi ta'kidlandi. Belgilangan vazifalar jirosini ta'minlash maqsadida "Yashil oliygoh" loyihasini amalga oshirish katta ahamiyatga ega.

Shu sababli mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari xalqaro talabalar javob beradigan barqarorlik va ekologik samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilaydigan "Harakatlar rejasini" ishlab chiqildi hamda ushbu reja shakllantirishda GreenMetric xalqaro reyting tizimining baholash mezonlariga tayanildi.

Xo'sh, nima uchun GreenMetric xalqaro reytingiga alohida ahamiyat qaratildi? Gap shundaki, oliyog'ohlar bu reytingda ishtirok etish orqali ta'lim muassasasi infratuzilmasini yaxshilash, energiyani tejash, suv resurslaridan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, transport tizimini takomillashtirish, ta'lim va tadqiqot faoliyatini uyg'unlashtirish hamda talabalar va xodimlar o'rtasida "yashil" madaniyatni shakllantirish imkoniga ega bo'ladi.

Shu bois, 2025-yil davomida oliyog'ohlarning GreenMetric xalqaro reytingida ishtirokini ta'minlash, ular faoliyatini muvofiqashtirish orqali yil yakunida mazkur xalqaro reytingning baholash mezonlari asosida milliy reytingni shakllantirishni hamda talabalar va xodimlar o'rtasida "yashil" madaniyatni shakllantirish imkoniga ega bo'ladi.

2024-yilda O'zbekistonda oliy ta'lim tizimidagi islohotlar va erishilgan yutuqlar o'qitish sifatini oshirish, xalqaro standartlarga mos mutaxassislar tayyorlash va global akademik maydondagi nufuzimizni mustahkamlash yo'lida muhim qadamlar bo'ldi. Oliy ta'lim muassasalari infratuzilmasini rivojlantirish, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va ta'lim dasturlarini zamonaviylashtirish orqali yoshlarimizga jahon standartlariga mos bilim olish imkoniyati yaratildi. Kelgusida ham ushbu yo'nalishdagi ishlar izchil davom ettirilib, mamlakatimizning ta'lim sohasidagi yutuqlari mustahkamlanaveradi.



**Kelgusida yurtimizdagi 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining birinchi 1000 taligiga kiritish maqsad qilingan bo'lib, bu yoshlarning jahon standartlariga mos bilim olish imkoniyatini kengaytirib, mamlakatning global akademik maydondagi nufuzini oshiradi.**

**Dual ta'lim tizimiga muvofiq, o'quv jarayoni ikki qismga bo'linadi: 3 kun institutda nazariy bilim olinsa, qolgan 3 kun ishlab chiqarishda amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi. Bu yondashuv talabalar nazariy bilim va amaliy ko'nikmasini uyg'unlashtirib, mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar etib tayyorlashga xizmat qiladi.**

**O'zbekistondagi 7 ta oliy ta'lim muassasasining 39 ta ta'lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o'tkazildi. Bu jarayon ushbu dasturlarning jahon standartlariga mosligini tasdiqlab, talabalarga zamonaviy va raqobatbardosh bilim olish imkonini beradi.**

**Ta'lim sifati va mutaxassislar malakasini oshirish borasidagi ishlar ham mazkur maqsadlariga xizmat qiladi. Xususan, joriy yilda 4970 professor-o'qituvchi xorijda malaka oshirish uchun yo'llanma oldi.**

Munosabat

QORAQALPOG'ISTONNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA SALOHİYAT HAM, IMKONIYATLAR HAM KENG

Sabir XOJAMETOV, Amudaryo tumani hokimi

Bugun Qoraqalpog'istonni har tomonlama kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi farovonligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, bu borada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Birgina Orolbo'yini taraqqiy ettirish maqsadida Prezidentimizning 10 dan ortiq farmon va qarori imzolandi. Ayni paytda mazkur huquqiy-me'yoriy hujjatlar hududdagi mislsiz o'zgarishlarda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.



2024-yil Qoraqalpog'iston uchun o'ziga xos tarixiy yillardan biri bo'lib qolmoqda, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, xalqimizning ko'p yillik orzularidan biri ushuldi. Qoraqalpog'istonni Xorazm bilan bog'laydigan 423 metrligi yangi avtomobil va temir yo'l ko'prigi ochilib, yuk va yo'lvochi tashish masofasi 180 kilometr qisqardi.

Yilning eng muhim voqealaridan biri — 323 million AQSH dollari qiymatidagi yangidan qurilgan "Qo'ng'iro't — Beyne'u" avtomobil yo'lining 240 kilometr qismi foydalanishga topshirildi. Bu tranzit va boshqa xizmatlar ko'rsatish orqali olinadigan daromadning yiliga 200 million dollarga oshishiga xizmat qiladi. Yaqinda 196 kilometrli "Miskin — Nukus" temir yo'lini elektrlashtirish ishlari ham boshlanadi.

Qoraqalpog'istonda sanoat, tadbirkorlik va infratuzilma sohalarini uchun 50 dan ortiq imtiyoz va yengilliklar berilgan. Xususan, investitsiya loyihalari uchun to'g'ridan to'g'ri yer ajratish huquqi faqat Qoraqalpog'istonda mavjud. Kuni kecha davlatimiz rahbari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda Qoraqalpog'istonning iqtisodiy salohiyati kompleks tahlil qilinib, qishloq xo'jaligi, turizm va xizmatlar sohasida 2,5 milliard dollarlik imkoniyat aniqlangani qayd etildi. Xususan, qishloq xo'jaligi sohasidagi ishlar tahlil etilib, oldinda turgan qator vazifalar belgilab berildi.

Qishloq xo'jaligi sohasida ko'p yildan buyon ishlab kelayotgan mutaxassis sifatida Qoraqalpog'iston sharoitida qanday ekin ekilsa, mo'l hosil olish mumkinligini yaxshi bilamiz. Iqlim sharoitimizga mos keladigan mahsulotlarni yetishtirish orqali aholi dasturxonini to'kin-sochin qilishimiz mumkin. Imkon darajasida surni iqtisod qiladigan ekinlar ekish, chorvachilik uchun yem-xashak tayyorlashda ilmiy yondashuvlar samara berishiga ishonamiz. Prezidentimiz aytgan ustuvor vazifalarni bajarishda shaxsiy mas'uliyatimizni yanada oshirib, bor kuch-g'ayratimizni safarbar qilamiz.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Bir mahalla — bir mahsulot



O'rta Chirchiqlik Muxtor aka Xo'jamqulov hovlisidagi kichik binoni, aslida, jo'ja boqishga mo'ljallab qurgandi. O'zi yashaydigan Dungan mahallasida qo'ziqorin yetishtiradiganlar bilan tanishib qoldi-yu, shu ishga ko'ngli ketdi. "O'ychining o'yi bitguncha, tavakkalchining ishi bitibdi" naqliga amal qiladiganlardan emasmi, shartta harakatni boshlab yubordi. Qolaversa, bo'sh turgan bino ham ayni qo'ziqorinbop ekan. Hokim yordamchisi Elyor Berdiqulov ko'magi bilan "Har bir oila tadbirkor" dasturi doirasida imtiyozli kredit oldi. Shogird ustozdan o'zibdi, deganlaridek, internetdan qo'ziqorinning yuqori hosilli "Veshanka" navini yetishtirishni o'rgandi.

TOMORQA — KAMBAG'ALLIKDAN CHIQUISHNING SAMARALI VOSITASI

5000 dan ziyodroq qopda parvarishlanayotgan qo'ziqorinlari kuniga ikki mahal osma quvurdan suv ichadi. Uch o'g'lining biri shu bilan band, tirikchiligi o'tib turibdi. Hosilning kilosi 25-30 mingdan sotiladi. Sotishda esa muammo yo'q. Do'konlar, supermarketlar bilan shartnoma tuzilgan, ko'tarasiya olib ketiladi. Yopiqlik binoda, ayniqsa, xonadonda yetishtirilgan qo'ziqorinning bozori chaqqon bo'lishi turgan gap. — Mehnatga layoqat, daromad olishga intilish insonning o'zida bo'lishi kerak ekan. Aks holda, ming harakat qilmang, bari befoyda. Yaqinda Prezidentimiz ham parkentlik tadbirkor ayol bilan suhbatida "Hamma sizga o'xshab mehnat qilsa, kambag'al ham, ishsiz ham bo'lmaydi", dedi-ku. To'g'ri-da, har bir oila o'zini o'zi band qilib, ro'zg'orini tebratib tursa, kambag'allik bo'lmaydi. Xudoga shukr, mahallamizdagi deyarli har bir uyda issiqxona qurilgan. Koreys karami ekib, 60-70, hatto 100 million so'mgacha daromad topayotgan oilalar bor, — dedi Muxtor aka. — Shunday bo'lsa-da, qo'ziqorinchilikka ham qiziqib, shu faoliyatni boshlayman deganlarga ish o'rgatib, ekib berishga ham vaqt topamiz.



Yer charchab qolmaydimi?

Suhbatdoshimiz koreys karamidan so'z ochganida, salqin tushishi bilan savdo rastalarida yoqimli hid taratib turgan chimchi

tuzlamalar-u turfa salatlar ko'z oldimizdan o'tdi. Ayni qishda ham har qanday ovqat bilan ketaveradigan bunday mahsulotlar uchun xomashyo yetkazib berayotgan mirishkorlar bilan suhbatlashgimiz keldi. "Uyg'ur" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Vohid Ramazonovdan bu borada ilg'or tajribalardan tavsiya qilishini so'ragan edik. "Qaysi birini aytam ekan-a?" deb o'ylanib qoldi. Qarangki, raisning o'zi ham tinib-tinchimagan odam ekan. 2,5 sotix tomorqasidagi issiqxonadan kamida 3-4-marta hosil olishini eshitib, havasimiz keldi. 3000 dan ziyod aholisi bo'lgan mahallada 700 dan ortiq xonadonning deyarli 600 tasi ekin ekar, 500 ga yaqinida issiqxona bor ekan. Vohid akaning usti ochiq issiqxonasida qor ostida kichikroq kosadag' bo'lib yashnab turgan gulkararni ko'rib ko'z quvnadi. Rais nazarbekliklardan olib kelib ekkani — yangi gollandiya navini atayin qor ostida qoldirib, sovuqqa chidamligini sinayotganini aytdi.

— Mahalla ahli hammamiz tezlashib ekinlarni ekamiz. Yerdan unumli foydalanish kerak-da axir. Daromadimiz shundan. Yudagi issiqxonaga koreys karamidan keyin gulkararni ekdik. Gulkararni yig'ishtirib olib, oq turp, so'ng'ra aysberg ekdik. Siz ko'rib turgan gulkararni beshinchi ekinimiz, — dedi Vohid aka.

— Bunaqada yer charchab qolmaydimi? — dedik ajablanib.

— Har yili brokkoli urug'i unib, katta bo'lguncha yerlarimiz dam oladi. Yanvar-fevraldan yana ekin ekilaveradi. Yerga ham ozuqa berib, vaqtda sug'orib turilsa, u bor mehnini beradi. Ko'pchilik o'ylaganidek, suv ham muammo bo'lmayapti. Deyarli hamma ekinimizga tomchilatib sug'orish qo'l kelyapti. Tomorqadan tashqari bug'doy o'midan ham yer olamiz. Bu yil u yerga brokkoli ekdik. Kilosini 18-20 ming so'mdan ulgurji sotamiz. Mijozlarning o'zi uzib oladi. 1,5 kilogacha bo'lgan karamlarimiz ekspozitga ketadi. Qolganini ichki bozorda donasini 7-8 ming so'mdan sotamiz. Qo'ylig bozorimi, "FOOD

city"ga olib boramizmi, sarson bo'lmaymiz. Ayniqsa, "FOOD city" qulay bo'lib qoladi. Zamonaviy soviqchilik bor. Xullas, hosilni yig'ib olib bo'ldi, xaridor ko'p.

Mahalladagi 45 nafar yoshga 30 sotixdan yer berilgan ham ularni qo'llab-quvvatlashning yaxshi yo'li. Faxriddin G'ulomov, Arabjon To'xtanazarov singari yoshlar bilakdagi kuchini shu yerdan daromad olishga sarflayapti. Aslida, maqsad ham shu. Ishsizlik bartaraf etilsa, kambag'allik darajasi kamayadi, farovonlik ortadi.

Prezidentimiz raisligida mahallalarda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha qilingan ishlar sarhisobi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalarga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida 2025-yilda 5 milliondan ziyod aholini daromadli qilish, 1,5 million odamni kambag'allikdan chiqarish hisob-kitob qilini aytdi. Tadbirkor oilalarga yordam berish, mahallaga tushib ishlash rahbarlar faoliyatining muhim mezon bo'lishi, odamlar va tadbirkorlar muammolarini hal qilmagan rahbar ishlamasligi ta'kidlandi. Bu esa yo'lini topa olmay yurgan ayrim yoshlarni biron-bir daromadli ishga yo'naltirishi bilan ahamiyatli.

Tuproq bilan tillashib

Yosh dehqon Faxriddin G'ulomov bilan suhbatlashganimizda, o'tgan yili ham ishsiz yoshlar qatorida bo'lganidan gap boshladik. Hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi unga imtiyozli yer olishni taklif qilganida, yo'q demaganidan xursand. Axir dehqonchilik ota meros, ishdan qochmaydigan yigit. Ekinni sal kechroq ekkan bo'lsa-da, 30 millionga yaqin daromad oldi. Chunki birinchi yil yerga to'lov qilmadi, hech qanday soliq ham to'lamadi. Eng quvonarlisi, ishlab topgan daromadi o'zining to'yiga sarflandi. Hozir uyidagi issiqxonada 17 mingta brokkoli ko'chatini tayyorlab qo'ygan Faxriddin ularni dekabrdayoq ekmoqchi edi. Qor yoqqani bois, bir oz kutib turibdi. Uning aytishicha, urug'ining donasi 200 so'mdan olinadigan brokkoli ko'chatini 1000 so'm, undan qimmatroq ham sotiladi. Ko'chat yetishtirib ham yaxshigina daromad olish mumkin. Bu sabzavotni ekkan odam esa mehnatdan tolmaydi. Plyonka ostiga ekiladigan brokkoli ariqqa suv kelgunicha yomg'ir, qor bilan oziqlanib turadi. Boshqa ekinlarga qaraganda mehmat kam. Bir-ikki marta chopiladi, o'g'it kam yeydi. Plyonka ostida bo'lgani uchun ochiqqa ekilganidan 15-20 kun oldin pishadi. Kimlardir "Hamal keldi — amal keldi" deb tomorqasiga birinchi ekinini eka boshlagan aprel oyida Faxriddin hosili pishib yetiladi.

— Hisoblab chiqsam, dehqonchilikdan bir yillik ish haqidam ko'proq daromad topar ekanman. Agar uch marta hosil olsam, yaxshigina mablag' bo'ladi. Brokkolidan keyin koreys karami, keyin gulkararni ekishni reja qilib turibman. Kelajakda shu ishni yanada kengaytiraman. Chunksi Prezidentimiz tumanlardagi kooperatsiyalar yaxshi samara berayotganini aytdi. Nasib qilisa, men ham kooperatsiya tashkil qilib, odamlarga yengillik berishga, xalqimga naf keltirishga tayyorman, — dedi Faxriddin.

O'rta Chirchiqlik tumaniyning Uyg'ur mahallasi odamlariga chandan havas qildik. Tuproq bilan tillashadigan asl mirishkorlarga tuganmas kuch-quvvat so'radik. Mahalladan chiqar ekanimiz, loqaql bir bor ekin ekmay, tomorqasini begona o'tlarga berib qo'ygan boqibeg'amlarning mana shunday qo'shnlari bo'lsa edi, degan o'y o'tdi xayolimizdan.

Munajat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Nuqtayi nazar. Bahodir XOLIQOV, Samarqand davlat chet tillar instituti professori v.b. 2025-yilga Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili deb nom berilgani mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yangi bosqich vazifasini o'taydi. Bu tashabbus orqali yurtimiz nafaqat ekologik vazifalarini hal qiladi, balki barqaror rivojlanishga erishishda yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. O'zbekistondagi ekologik vaziyat, afsuski, qator muammolar bilan bog'liq.

TABIATGA MEHR BERISH O'ZIMIZGA G'AMXO'RLIK KO'RSATISHDIR. Bahodir XOLIQOV, Samarqand davlat chet tillar instituti professori v.b. 2025-yilga Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili deb nom berilgani mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yangi bosqich vazifasini o'taydi. Bu tashabbus orqali yurtimiz nafaqat ekologik vazifalarini hal qiladi, balki barqaror rivojlanishga erishishda yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. O'zbekistondagi ekologik vaziyat, afsuski, qator muammolar bilan bog'liq.

Ekologik vaziyat yomonlashuvining oldini olishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish masalalari davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentimiz xalqaro forum va muloqotlarda tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha qator tashabbuslarni ilgari surmoqda. O'zbekistonning iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatishga qaratilgan sa'y-harakat salmoqli bo'layotir. Shu maqsadda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda turli dasturlar amalga oshirilmoqda. Suv resurslarini tejash va boshqarish borasida islohotlar olib borilmoqda. Bu borada Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqa davlatlar bilan hamkorlikda boshlangan loyihalar alohida ahamiyatga ega. Prezidentimiz ilgari surgan bo'lgan "yashil" iqtisodiyotga o'tish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivojlantirish va tabiiy resurslarni oqilona boshqarish borasida yutuqlarni qo'lga kiritishga asos bo'lmog'da.



**Firdavs ABDUXOLIQOV,**  
**O'zbekistondagi islom**  
**sivilizatsiyasi markazi direktori,**  
**san'atshunoslik fanlari bo'yicha**  
**falsafa doktori**

#### Boshlanishi 1-betda

Yaqinda o'zbekistonlik bir guruh olim va tadqiqotchilar, ommaviy axborot vositalari vakillaridan iborat navbatdagi delegatsiya Buyuk Britaniyada bo'lib, qator muzeylari, kutubxonalar, tadqiqot markazlari bilan yaqindan tanishdi, ularda saqlanayotgan nodir manbalar, adabiyotlar, qimmatbaho ashyolar to'g'risida muhim ma'lumotlarni qo'lga kiritdi.

Birlashgan Qirollik nafaqat baquvvat iqtisodiyoti, ilg'or texnologiyalari, balki Britaniya, Viktoriya va Albert kabi muzeylari, qadimiy kutubxonalar bilan ham dunyo ahlini o'ziga rom etib keladi. Xususan, Britaniya kutubxonasida jahon tamaddunining nodir namunalari, ko'p asrlik yozma manbalar, jumladan, O'zbekiston tarixi va madaniyatiga oid osori atiqalar saqlanadi.

Ilimiy va ijodiy safarimizdan maqsad ana shu bebaho meros durdonalari bilan yaqindan tanishish, ular saqlanayotgan muassasalar bilan aloqa o'rnatish, olim va mutaxassislarimizga ilmiy izlanishlar uchun keng yo'l ochishga ko'maklashishdan iborat edi.

#### Qaffol Shohiy merosini o'rganish bo'yicha hamkorlik

Dastlab Londondagi qadimiy qo'lyozma va toshbosma asarlarni tadqiq etish hamda

# YANGI O'ZBEKISTONGA YANGI NIGOH

kataloglashirishga ixtisoslashgan "Al-Furqon" fondida bo'ldik.

Fond raisi Sali Shahsiyariy eski tanishimiz. O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi, O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha jahon jamiyati (WOSCU) tadbirlarida u bilan ko'p bor uchrashganmiz. Janob Shahsiyariy joriy yilning 23-26-avgust kunlari Toshkent va Samarqand shaharlarida o'tkazilgan "Buyuk ajdodlar merosi — Uchinchi Renessans asosi" xalqaro kongressida WOSCU boshqaruvi kengashi a'zosi etib saylangan edi.

Vatanimiz tarixi, xalqimiz madaniyatiga hurmat va qiziqishi cheksiz bu inson bilan navbatdagi uchrashuvimiz ham samarali kechdi.

Subhat davomida u buyuk vatandoshimiz, mashhur faqih Qaffol Shohiy hazratlari haqida mehr bilan so'zlashdi. Allomaniy fiqhga oid, afsuski, bizda yetarli darajada o'rganilmagan "Mahosin ash-sharia" asari qo'lyozmasining dunyo fondlaridagi nusxalarini tadqiq qilish bo'yicha loyihasini taqdim etdi.

Qaffol Shohiy fiqh, mantiq sohalari haqida oid asarlar yozgan. Bizgacha ul zotning "Dalol an-nubuvva", "Mahosin ash-sharia", "Sharh ar-risola" kabi asarlari yetib kelgan. Bu asarlarning tadqiq etilishida "Al-Furqon"ning o'ziga xos o'rni bor.

Subhat chog'ida fond bilan O'zbekistondagi ilmiy-tadqiqot markazlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, xususan, "Mahosin ash-sharia"ning nusxalarini jamlash loyihasini hamkorlikda amalga oshirish, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida manbashunos mutaxassislar uchun qo'lyozmalarni kataloglashirish va raqamlashtirish bo'yicha o'quv seminarlar tashkil qilish, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi fondida saqlanayotgan qo'lyozmalar katalogini hamkorlikda nashr etish kabi masalalar bo'yicha kelishib oldik.

— Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qadimiy yozma manbalarni o'rganish, buyuk allomalar merosini keng jamoatchilikka yetkazish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahsinga sazovor, — deydi Sali Shahsiyariy. — Avgust oyida Toshkent va Samarqand shaharlarida o'tkazilgan xalqaro anjuman davomida ham bunga amin bo'lgan edim. Biz O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi bilan hamkorlikda yurtingizda yetishib chiqqan buyuk allomalar qo'lyozmalarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar qilaypmiz. Kelgusida bu qo'lyozmalarning faksimile nusxalarini yaratish rejalashtirilgan.

#### Elchixonamizda qabul

Londonning Kensington mavzesida, so'lim "Holland park" xiyoboni qarshisidagi oppoq binolardan birining peshtoqida Vatanimiz bayrog'i hilpirab turibdi. Bu yerda elchixonamiz joylashgan.

O'zbekistonning Buyuk Britaniyamiz favqulodda va muxtor elchisi Ravshan Usmonov hamda elchixonada xodimlari bizni ochiq chehra bilan qarshi oldi.

Tashrif kunlari bu yerda "Yangi O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlar" mavzusida anjuman bo'lib o'tdi. Unda Britaniyaning nufuzli ekspert va ilmiy doira vakillari, jamoat arboblari, vatandoshlarimiz ishtirok etdi. So'nggi yillarda



mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik har tomonlama rivojlanib borayotgani, bu borada ilmiy va madaniy sohalardagi aloqalar muhim o'rinni tutishi qayd etildi.

Tadbirda Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari hamda Xalqaro islom akademiyasining yangi nashrlari ko'rgazmasi tashkil etildi. O'zbekistondagi

## Hayotiy tashabbuslar qanotida

# BUYUK BRITANIYA:

# O'ZBEKISTONGA YANGI NIGOH

islohotlar, madaniy merosimiz targ'ibotiga oid filmlar namoyish qilindi. Elchixonona kutubxonasiga o'zimiz bilan olib borgan bir qancha kitob-albomlarni tuhfa qildik.

Elchixonada O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi nomidan mehmonlar uchun qabul marosimi tashkil etilib, dasturxonaga milliy taomlarimiz tortildi.

— O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzi ortib bormoqda, — deydi Britaniya parlamenti Lordlar palatasi a'zosi Renard Mbe. — Bunda, albatta, mamlakatimizda yuritilayotgan ochiqlik siyosati katta o'rinni tutadi. Toshkentga borganimda bunga shaxsan ishonch hosil qilganman.

#### Kembrijda madaniy merosimiz taqdimoti

Londonda 70 chaqirimcha masofada joylashgan, qadimiy va yirik universiteti bilan mashhur Kembrij shaharchasi butun Yevropa tarixi va madaniy hayotida muhim o'rinni tutadi. Ayni paytda bu yerda ko'pgina olimlar tomonidan O'zbekiston madaniy merosi tadqiq



qilinadi. Kembrij to'plamlarida yurtimiz tarixiga oid qator eksponatlar mavjud.

Pembrok kollejida Kembrij universiteti Fors tadqiqotlari markazining 10 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan sharqshunos olimlar konferensiyasiga taklif qilingan edik. Anjumanda qator Sharq qo'lyozmalari xususida so'z yuritilib, ularning O'zbekiston madaniy merosiga ham aloqadorligi qayd etildi.

Mazkur xalqaro konferensiyada o'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatiga oid taqdimot o'tkazildi, hujjatli film namoyish etildi. Markazda buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy ijodi, uning Britaniya fondlarida saqlanayotgan merosiga bag'ishlab xalqaro anjuman o'tkazish to'g'risida kelishib olindi.

— Turmush o'rtog'im Charlz Melvill bilan O'zbekistonning uzoq yillardan beri Buyuk Britaniyada saqlanayotgan madaniy merosi namunalarni o'rganib kelamiz, — deydi markaz rahbari Feruz Melvill. — O'zbekistonda o'tkazilayotgan tadbirlarda faol ishtirok etaypmiz. WOSCU bilan hamkorlikda "O'zbekiston madaniy merosi Kembrij

## Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda madaniy merosni asrab-avaylash va targ'ib etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada buyuk britaniyalik do'stlarimiz bilan har tomonlama hamkorlik alohida o'rin tutadi.

to'plamlarida" hamda "Markaziy Osiyo merosi Kembrij to'plamlarida" kitob-albomlarini nashr ettirdik.

Bu yerda O'zbekiston madaniy merosiga oid kitob-albomlar ko'rgazmasi tashkil qilindi. O'zbekistondagi markazlar tomonidan nashr etilgan kitoblar Fors tadqiqotlari markaziga ham hadya qilindi.

Anjumandan so'ng markaz rahbari Feruz Melvill ishtirok uchun olimlarimizga alohida minnatdorlik bildirib, bundan keyin ham O'zbekiston madaniy merosini o'rganishga qaratilgan loyihalarda faol ishtirok etishini bildirdi.

#### Buyuk sulola merosiga munosib e'tibor

Delegatsiyamiz Londondagi Viktoriya va Albert muzeyida saqlanayotgan eksponatlar bilan ham tanishdi. Qadimiy gilamlar, me'morlik namunalari, koshin parchalari, qabr toshlari, uy-ro'zg'or buyumlari bizda katta qiziqish uyg'otdi.

Faqat bir narsadan ranjidik. Afsuski, hamon jahon ilmiy jamoatchiligi boburiylarga nisbatan bilib-bilmasdan "buyuk mo'g'ullar" atamasini qo'llashda davom etmoqda.

Mazkur muzeyda ayni paytda bo'lib o'tayotgan boburiylar merosiga doir ko'rgazma ham "Buyuk mo'g'ullar davri san'ati" deb nomlanibdi. Unda Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari — Akbarshoh, Jahongir Mirzo, Shohjahon, Avrangzeb singari hukmdorlar davriga tegishli nodir eksponatlar namoyish qilinmoqda.

Holbuki, asl haqiqatdan xabardor shaxslar bu sulola temuriylar xonadoniga mansub, faqat vaziyat taqozosiga ko'ra Movarounnahrni tark etib, Hindistonda markazlashgan davlat barpo

— O'zbekiston — boy tarix va betakror madaniy merosga ega bo'lgan qadimiy mamlakat, — degan edi Oksford Islom tadqiqotlari markazi direktori Farxan Nizomiy o'sha uchrashuvda. — Men bu yurtga ko'p marotaba kelganman. Ammo so'nggi yillarda mamlakatimizning tashqi dunyo bilan aloqalari tobora kengayib bormoqda. Yangi O'zbekiston eshiklari barcha hamkorlar qatori biz, xorijiy tadqiqotchilarning uchun ham doimo ochiq ekanidan mamnunmiz. Jumladan, O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi hamda Oksford Islom tadqiqotlari markazi bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan muzokaralarimiz kutilgan natijalarni berishiga ishonamiz.

Tadbirda Oksford Islom tadqiqotlari markazi vakillari tomonidan qator xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "Islom



qo'lyozmalarining faksimile nashrini chop etish uchun ularning nusxalarini olish bo'yicha ham kelishib oldik. Nikolas Kontovanning aytishicha, bu qo'lyozmalar nusxasi bizga beg'araz taqdim qilinishi mumkin ekan.

#### Media sohasidagi xalqaro hamkorlik

Bugungi global o'zgarishlar zamonga, axborot oqimiga xos tezkorlikni talab etadi. Bu borada dunyoning yetakchi ommaviy axborot

dunyosining ijtimoiy va ilmiy salohiyati tarixi atlasi" loyihasi taqdimoti o'tkazildi.

Loyihada har bir tarixiy hududning islom olamida tutgan o'rni, kashfiyotlar, olimlar hayoti va faoliyati, musulmon sivilizatsiyasining dunyo ilm-fanidagi o'rni singari masalalar o'z aksini topadi.



Nizomiy janoblari bizga markaz kutubxonasini ham ko'rsatdi. Kitoblarning aksariyati unga otasi, mashhur tarixchi olim, boburiylar davrinin yetuk bilimdoni Xoliq Ahmad Nizomiydan qolganini aytdi. Biz ham kutubxonaga o'zimiz bilan olib borgan "O'zbekiston madaniy merosi" turkumidagi 50 jildli kitob-albomlarimizni, Katta Langar Qur'onining faksimile nusxasini taqdim etdik.

Markazda qator islom mamlakatlari xonalari tashkil qilingan, har bir xona o'sha yurt qadriyatlarini, dizayniga mos tarzda bezatilgan. Nizomiy mamlakatimiz uchun markazdan alohida xona ajratilishini ma'lum qildi. Biz bu e'tibor uchun minnatdorlik bildirib, ajratilgan joyni milliy qadriyatlarimizga xos tarzda bezash, zarur adabiyotlar, ko'rgazmali materiallar bilan ta'minlashga so'z berdik.

#### Grinovichda Mirzo Ulug'bekning ham hissi bor

Safar doirasida millionlab nodir manbalar xazinasi bo'lgan Bodlean kutubxonasida bo'lib, bu yerda saqlanayotgan O'zbekistonga oid qo'lyozmalar bilan ham tanishdik. Bu yerda bizni ingliz ekani yaqqol sezilsa-da, qo'lini ko'ksiga qo'yib, o'zbekcha lutf va mulozamat bilan yosh olim kutib oldi.

Bodlean kutubxonasi Sharq qo'lyozmalari bo'limi rahbari Nikolas Kontovasi o'zbekistonlik olimlar yaxshi biladi. Bir qancha sharq tillarini puxta o'zlashtirgan bu yigit navoiysunos.

— Alisher Navoiyning ul zot hayotidagi davrida ko'chirilgan qo'lyozmalari kutubxonamiz fondining nodir javohirlaridan sanaladi, — deydi Nikolas Kontovas sof o'zbek tilida. — Hazratning muborak nigohi tushgan "Xamsa" qo'lyozmasini yaqindan ko'rish har qanday insonni hayajonga soladi.

Darvoqe, buyuk astronom olim Mirzo Ulug'bekning "Ziji Ko'ragoniy" asari nusxasi ham shu yerda saqlanadi. N.Kontovanning aytishicha, bu qo'lyozmani salkam to'rt asr muqaddam oksfordlik olim Jon Greysv sotib olgan va kitob hoshiyasiga lotin tilida qaydlar kiritgan. Kitob sahifalarida usmonli turk tilida ham bitiklar uchraydi. Demak, bu qo'lyozma ancha vaqt Usmoniylar saroyi kutubxonasida saqlangan. Katta ehtimol bilan "Ziji Ko'ragoniy"ning ushbu nusxasini Istanbulga Ali Qushchining o'zi olib kelgan. Jon Greysv 1640-1650-yillardagi sayohatlari asosida bu qo'lyozmani qo'lga kiritib, Oksfordga olib kelgan. Keyinchalik Londonda mashhur Grinich Qirollik observatoriyasi qurilishida ham aynan shu asar asos bo'lgani taxmin qilinadi.

Uchrashuv chog'ida Bodleandagi buyuk ajdodlarimizga tegishli bebaho

Uchrashuv chog'ida Bodleandagi buyuk ajdodlarimizga tegishli bebaho

Uchrashuv chog'ida Bodleandagi buyuk ajdodlarimizga tegishli bebaho

Uchrashuv chog'ida Bodleandagi buyuk ajdodlarimizga tegishli bebaho

#### Uchrashuv so'ngida markazimiz bilan Miliana Radivojevich o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

Uchrashuv so'ngida markazimiz bilan Miliana Radivojevich o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

#### Auksion markazlari tomon

Ommaviy axborot vositalari orqali dunyodagi yirik auksion savdo uylari va ularda sotuvga chiqariladigan qimmatbaho san'at asarlari haqida ko'p o'qiganmiz. Ular orasida O'zbekiston madaniy merosiga oid ko'plab osori atiqalar ham bo'lgan. Jumladan, mamlakatimizda saqlanayotgan Hazrat Usmon mus'hafi, Sohobqiron Amir Temur davrida ko'chirilgan Qur'on karim qo'lyozmasining ayrim sahifalari, temuriylar, boburiylar davriga oid o'nlab tangalar, qimmatbaho buyumlar aynan shu auksionlar orqali sotilgan edi.

Turli tarixiy davr va sharoitlarda, turfa sabablar bilan olib chiqib ketilgan mazkur nodir eksponatlar qachondir o'zining asl egasiga — xalqimizga qaytariladimi? Buning uchun biz — bugungi avlod vakillari nimalar qilishimiz kerak?

Aynan ana shu maqsadda mamlakatimizda O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish bilan bog'liq qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Xorijiy mamlakatlardagi muzey va fondlar, arxivlar, ilmiy-madaniy muassasalar bilan ishlashning qonuniy asoslari yaratildi.

Safar rejimizdan Londondagi yirik auksion markazlarini ko'rish ham o'rinni olgan edi. Bu boradagi ilk manzilimiz "Kristis" auksion savdo uyi bo'ldi.

Mashhur mo'yqalam ustalarining asarlari, Sharq kitobot san'atiga oid bir qancha qo'lyozmalar bilan tanishdik. Auksion uyi rahbariyati bizni 2025-yilning mart oyida o'tkaziladigan navbatdagi savdolarida ishtirok etishga chaqirdi.

"Sotbis" auksion savdo uyi ham shu yo'nalishda faoliyat ko'rsatadigan yirik tashkilotlardan biri. Uning Londondagi ofisi auksion savdolar bo'limi rahbari Benedikt Karter, kollektorlar guruhi rahbari Alina Devey, Islom va hind san'ati bo'limi mutaxassisi Franki Keyvorz, ilmiy xodim Maryam Farhodi, Yaqin Sharq va Hindiston bo'limi boshlig'i Eduard Gibbs va boshqar O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi vakillariga ayni paytda savdo uyi ixtiyorida bo'lgan Markaziy Osiyo madaniy merosiga oid osori atiqalar haqida ma'lumot berdi.

Savdo uyi davlat saqlanayotgan VIII asrga mansub so'g'diyar libosi, somoniylar davriga tegishli sopol idishlar, qadimiy binolarga oid koshinlar, mamulkalar va temuriylar davrida ko'chirilgan taxmin qilingan Qur'on karim qo'lyozmalari bizda katta taassurot qoldirdi.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda madaniy merosni asrab-avaylash va targ'ib etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada buyuk britaniyalik do'stlarimiz bilan har tomonlama hamkorlik alohida o'rinni tutadi. O'tgan bir hafta davomida Birlashgan Qirollikning qator madaniy-ma'rifiy muassasalarida yurtimiz delegatsiyasi vakillari ishtirokida uchrashuvlar, taqdimotlar o'tkazildi, memorandumlari imzolandi, kelishuvlarga erishildi.

O'ylaymizki, ushbu safarimiz davlatimiz tomonidan buy madaniy merosimizni tadqiq va targ'ib qilish borasida oldimizga qo'yilgan vazifalarni bajarishimizda katta ahamiyat kasb etadi.

#### Britaniya muzeyi bilan aloqalar


Jahonga mashhur Britaniya muzeyiga sayohat mazmunli kechdi. Muzeyda ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yordamchisi Saida Mirziyoyeva hamda O'zbekiston madaniyati va san'atini rivojlantirish jam'armasi ishtirokida tashkil qilingan Silk Roads ("Buyuk ipak yo'li") ko'rgazmasi bo'lib o'tmoqda.

Ko'rgazmaning O'zbekistonga oid qismidan Samarqand, Buxoro singari tarixiy shaharlarga oid arxeologik topilmalar, tasviriy san'at asarlari, nodir qo'lyozmalar, turli muzeylardan keltirilgan nodir eksponatlar o'rinni olgan. Xususan, Afrosiyob hamda Varaxsha devoriy suratlari, so'g'd yozuvi namunalari, Somoniylar maqbarasi devoriy bezaklari, qadimiy ossuriylar namoyish etilmoqda.

O'zbekiston delegatsiyasi vakillari tashrif doirasida muzey metasaddilari bilan uchrashuv o'tkazdi. Unda o'zbekistonlik buyuk allomalarning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini keng jamoatchilikka ko'rsatish maqsadida Islom sivilizatsiyasi markazi binosini sifatli kontent bilan to'ldirish zarurligi, bu borada Britaniya muzeyi bilan hamkorlik katta o'rinni tutishi ta'kidlandi. Britaniya muzeyi kutubxonasiga yurtimizda chop etilgan kitob-albomlar sovg'a qilindi. Shuningdek, britaniyalik mashhur olim, London universitet kolleji huzuridagi Arxeologiya instituti ilmiy xodimi Miliana Radivojevich bilan muloqot bo'lib o'tdi.

M.Radivojevich ham eski qadrdonlarimizdan. Shu yil avgust oyida Toshkent va Samarqand shaharlarida o'tkazilgan "Buyuk ajdodlar merosi — Uchinchi Renessans asosi" mavzusidagi xalqaro kongressda Aksikent tarixiy yodgorligini taqdim qilish bilan bog'liq loyihasini taqdim etgan, bu yangilik o'zbek ilmiy jamoatchiligi tomonidan xursandlik bilan qabul qilingan edi.

— Aksikent Markaziy Osiyoning tarixiy madaniy markazlaridan biridir, — deydi M.Radivojevich. — Keyingi izlanishlar bu yerda ming yillar avval ishlab chiqarilgan po'lat Buyuk ipak yo'li orqali dunyoga tarqalgani ko'rsatmoqda. O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi bilan hamkorlikda bu loyihani amalga oshirish niyatidamiz.



# BESHTA MUHIM TASHABBUS JAMIYATIMIZNING YANGI

Jonibek ALIJONOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari lavozimiga kirishgan dastlabki kunlardan yoshlar tarbiyasiga bugun qanday shaklda e'tibor berish kerakligini juda yaxshi anglardi. Prezidentimiz tomonidan imzolangan birinchi qonun ham 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun edi.

Afsuski, 7-8 yil oldin biz ma'naviyatimiz bilan maqtana oladigan darajada bo'lmaganmiz. Kitobning qadri tobora yo'qolayotgan, san'at, adabiyotga nisbatan bekorchilarning ishi degan qarashlar shakllanayotgan, eng muhim narsa daromad degan g'oya ildiz otayotgan davrlarga kelib qolgan. Bunday tafakkur bilan yaxshi kelajak yaratib bo'lmagani ziyoli qatlam yaxshi anglar, ammo har kimda ham "o'zgartira olmayman baribir", degan umidsizlik uchquni yashardi. Vaziyat katta siyosiy irodani kutib yashardi. Davlatimiz rahbari xalqimiz uchun ana shunday katta siyosiy iroda bo'lib keldi. Ulug'vor maqsadlarga o'zi qattiq ishonadi, boshqalarni ham ishonтира oldi, amaldor ahlini ayni maqsadlarga mutanosib tarbiyalashga kirishdi. Endi zalvorli ishlohtalarni boshlash mumkin edi.

2019-yil 19-mart kuni davlatimiz rahbari tomonidan ijtimoiy, ma'naviyat, rif'iyl sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish, yosh avlodga e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yuqoridagi yoshlarni o'rnatishda kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga alohida urg'u berish maqsadida 5 ta muhim tashabbus ilgari surilgani yangi O'zbekistonni bunyod etishda yoshlar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha yangi bosqichni boshlab bergan edi. Bu tashabbuslar shunchaki qog'ozda qoladigan gaplar emas, uning qanchalik ishlaganini oradan o'tgan yillar ham isbotlab turibdi. Keling, ularni bir esga olaylik:

Birinchi tashabbus — yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishini oshirish, iste'dodini yuzaga chiqarish.

Ikkinchi tashabbus — yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish.

Uchinchi tashabbus — aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil qilish.

To'rtinchi tashabbus — yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish.

Beshinchi tashabbus — xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash.

5 ta muhim tashabbus ilgari surilgani yangi O'zbekistonni bunyod etishda yoshlar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha yangi bosqichni boshlab bergan edi. Bu tashabbuslar shunchaki qog'ozda qoladigan gaplar emas, uning qanchalik ishlaganini oradan o'tgan yillar ham isbotlab turibdi.



## Musiqa, san'at, adabiyot — tarbiyaning asosi

Tashabbuslarga qayta ko'z yugurtirib, tafakkur qilaylik. Ularda ko'tarilgan masalalar rostdan ham dolzarb edi. Musiqa, rassomlik, adabiyot va teatr... Texnologiya taraqqiyotidan hovliqib, inson hayoti uchun nihoyatda muhim bu sohalarga eskilik sarqiti sifatida qarashni boshlamaganmiz? Rassomlarga, shoirlarga, teatr aktyorlariga "xayolparast" sifatida qarab, ularning mehnat mahsullarini iste'mol qilishni mubolag'a bo'lsa ham uyat hisoblab qolmaganmiz? Orada o'z bag'rida insoniyat madaniyati durdonalarini jamlagan teatrlar tomoshabinning yo'lga nigoron qolib ketdi. Aksar rassomlar, shoirlar o'zini e'tibordan chetda qolgandek his etib, boshqa kasbning izini tutishga majbur bo'ldi. Lekin ular azaldan jamiyatning o'ziga xos tarbiyachilari bo'lib kelgan. Mudroq ko'zlarimiz nega buni anglamay qolgandim? Birinchi tashabbus aynan shu mudroqlikni tarqatdi, ko'ngillarni nurafshon qildi, san'at, adabiyot shu paytgacha ham, bundan keyin ham tarbiyaning bir bo'lgi ekanini baralla e'tirof etdi. Katta ijodkorlarni yana jamiyatga yaqinlashtirdi. Ular maktablarga bordi, ma'naviy dunyosini yosh avlodga yuqtirdi. Teatrlar ancha jonlandi, aksariyat seanslarga chipta tugab qolish holatlari yana qaytdi, bunga javoban teatr jamoalari ham ko'lamni kengaytirdi. Jamiyatda qiziqishning ortishi natijasida yosh ijodkorlar elga tanila boshladi, tilga tushdi, "Adabiyot o'ladimi?" degan xavotirli savollar iste'moldan butunlay surib chiqarildi. Bir so'z bilan aytganda, adabiyot va san'at hali xalqqa kerakligini, xalq ham adabiyot va san'atga ehtiyoji balandligini chuqur his qiladi.

## Sport bilan shug'ullangan yoshlarning aqli yaxshiroq ishlaydi

Sportni olaylik. Sport bilan shug'ullanish faqat sportchining ishi, degan qarash shakllanib qolgan. Jismoniy mashg'ulotlarning inson organizmi uchun qanchalik foydali ekanini ilm-fan asrlar ilgari isbotlab qo'ygan. Unga ko'ra, hatto aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi insonlar ham sport bilan shug'ullanishi shart. Biroq orada qarashlarimiz biroq oqsab qoldi. Qiziqishi borlarda imkoniyat yo'q bo'lardi, imkoniyati borlarda qiziqish kamayib ketgandi. Bu tashabbus esa oradagi balansni ta'minladi, imkoniyat yo'qlarga sharoit yaratib berish boshlandi, qiziqishi yo'qlarga targ'ibot kuchaydi. O'zingiz bir qarang-chi, so'nggi to'rt-besh yilda yon-atrofingizda nechalab sport maydonchalari qurildi, nima o'ynashini bilmay yurgan kichkintoylarga zamonaviy bolalar maydonchalari sovg'a qilindi. Sport marafonlari o'tkazish an'anaga aylandi. Bir so'z bilan aytganda, ikkinchi tashabbus sport faqat shu soha vakillarining emas, barchaning doimiy mashg'uloti bo'lishi kerakligini uqtirdi. To'g'ri-da, tanasi chiniqgan insonning vaqti unumli bo'ladi, kasallikni nari quvadi, aqli yaxshiroq ishlaydi, umri uzayadi.

Lekin ikkinchi tashabbusning maqsadi faqat shug'una emas, balki yoshlarning sport sohasidagi qobiliyatini namoyon qilishga imkoniyat yaratish ham edi. Masalan, mahallada voleybol o'ynash uchun maydon qurilsa, mahallaning bolalari bu o'yin bilan tanishadi, o'rganadi, tajriba orttiradi. Unga mehri tushganlari shu sport turini professional darajada davom ettiradi, yutuqlarga erishadi. Endi o'ylab ko'ring, agar shu maydon qurib berilmaganda nima bo'lardi? Bolalar bu sport turidan bexabar ulg'ayaverardi-da.

## Kompyuterni bilish zalvorli ishlarga zamin

Bugun kompyuter texnologiyalari taraqqiy etgan davr. U bilan hisoblashmaslikning iloji yo'q. Sababi virtual hayotdan bexabarlik dunyodan bexabarlik sifatida baholana boshlagan. Ilm-fan ham, tadbirkorlik ham borgan sari u bilan integratsiyalashmoqda. Shunday ekan, yoshlarning bu borada



Tashabbuslarning mohiyatini birma-bir ko'rib chiqdik, samarasining esa har kun guvohi bo'lyapmiz. Demak, besh muhim tashabbusni hech ikkilanmay to'liq quvvatda ishladi va ishlamoqda, deya olamiz. Ya'ni bu harakatlar oradan o'tgan yillarda samarali ekanini isbotladi. Bu naqadar to'g'ri yo'l tanlaganimizdan dalolat. Oradan bir necha yillar o'tib, tag'in shu mavzuga qaytganimizda esa natijalarimiz bundan ham kattaroq bo'layotganini e'tirof etishimiz shubhasiz.

bilimini yuksaltirish o'ziga xos majburiyatga aylanadi. Uchinchi tashabbusning mohiyati ham ayni shu edi.

Agar ishlatishni bilmasak, kompyuter ham oddiygina matoh. Undan unumli foydalanish bilim talab qiladi. Yaqin-yaqingacha ko'pchilik yoshlar kompyuterni o'yin o'ynaydigan qurilma sifatida tasavvur qilgani ham bor gap. Lekin bu mutlaq xato tasavvur edi. Bugun kompyuter orqali internetda juda zalvorli ishlar qilsa bo'ladi. Daromadini aytmaysizmi?! Lekin qanday qilib shu darajaga chiqish mumkin?

## Zamonaviy yoshlarning maqsad-muddaosi

To'rtinchi tashabbus oldimizga ayni katta savolni qo'ydi. Natijaning qanday bo'lganini esa oradan o'tgan yillarning o'zidagi isbotlab turibdi. Bugun internet imkoniyatlaridan butunlay bexabar yoshni izlab topa olmasiz. Jamiyatimizda zamonaviy deyilayotgan kasblarni tanlayotgan yoshlar soni borgan sari oshib bormoqda. Yigit-qizlar aqlini ishlatib, internetdan foydalanib pul topayapti, kamiga inson o'z qadriyatlariga xilof kelmasa, bas. Beshinchi tashabbus ayni shu harakatlar uchun o'ziga xos mayoq bo'lib xizmat qilganini atrofimizga qarab his qilib olish qiyin emas.

Iqtidor inson tanlamaydi. Ayolmi, erkakmi, har bir insonda o'ziga xos iqtidor mavjud bo'ladi. Muhimi, uni yuzaga chiqarish uchun erkin muhitning bor-yo'qligi. Ilgari ayol kishi tadbirkorlik qilaman, ish o'rni yarataman desa, yuztadan to'qson sakkizta odam "Qo'ysang-chi, erkaklar eplolmagan ishni sen eplashingga yo'l bo'lsin", derdi. Oradan 4-5-yil o'tib, jamiyatga qarang, o'nta barmog'ingiz bilan tadbirkor sanasangiz, bir qo'lingizga erkak tadbirkorlar, bir qo'lingizga ayol tadbirkorlar to'g'ri kelyapti. Bugun korxonalarda ayollar

boshqacha. Muhimi, bu borada o'sish yuqori. Lekin sohadagi ayrim kamchiliklarni ham aytib ketishimiz kerak. Masalan, mamlakatimizda kripto sohasidagi ishlohtlar juda sekin bormoqda. Yuz minglab yoshlar bu sohaga qiziqadi, lekin qonunchiligimizning kripto sohasiga munosabati hanuz jiddiy cheklavlar girdobida. Mutasaddilar bu boradagi harakatlarni tezlashtirishi, ayni soha bo'yicha ham keng va sog'lom muhit yaratib berishi maqsadga muvofiq bo'lardi.

## Ayollar yaxshi joylarda ishlashni eplayapti

Ilgari ayollarga nisbatan "ayol kishi uyning odami, uyda o'tirib bola tarbiyalashi kerak", degan tafakkur ko'pchiligimizda ustunlik qilganini tan olmay ilojimiz yo'q. Shuning uchun ota-onalar qizlarini haddenganda o'qitishga harakat qilavermas, tinchgina turmushga uzatishni afzal bilardi. Biroq bu munosabat xato bo'lganini zamonning o'zi isbotlab qo'ydi. Bugungi davrda har bir inson jinsidan qat'i nazar, rivojlanishga, maqsadlarini amalga oshirishga haqli. Bunda inson o'z qadriyatlariga xilof kelmasa, bas. Beshinchi tashabbus ayni shu harakatlar uchun o'ziga xos mayoq bo'lib xizmat qilganini atrofimizga qarab his qilib olish qiyin emas.

Iqtidor inson tanlamaydi. Ayolmi, erkakmi, har bir insonda o'ziga xos iqtidor mavjud bo'ladi. Muhimi, uni yuzaga chiqarish uchun erkin muhitning bor-yo'qligi. Ilgari ayol kishi tadbirkorlik qilaman, ish o'rni yarataman desa, yuztadan to'qson sakkizta odam "Qo'ysang-chi, erkaklar eplolmagan ishni sen eplashingga yo'l bo'lsin", derdi. Oradan 4-5-yil o'tib, jamiyatga qarang, o'nta barmog'ingiz bilan tadbirkor sanasangiz, bir qo'lingizga erkak tadbirkorlar, bir qo'lingizga ayol tadbirkorlar to'g'ri kelyapti. Bugun korxonalarda ayollar

ish boshqaruvchilik qilyapti, yosh qizlar o'z tadbirkorligiga asos solib, ish o'rni yaratayapti, davlatga soliq to'layapti. Davrning o'zi ko'rsatib qo'ydi — ayollarga adolati munosabatda bo'linsa, maqsadlariga quloq tutilsa, ular erkaklar bilan tengma-teng qadam tashlay olarkan. Zotan, har birimiz insonmiz.

Ayol yaxshi joylarda ishlashi uchun oliy ma'lumotli bo'lishi maqsadga muvofiq. Butun dunyoda ham shunday. Shundan kelib chiqib, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida xotin-qizlar ulushini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga e'tibor har qachongidan kuchaydi. Xotin-qizlarga foizsiz ta'lim kreditlari berilayotgani, magistraturada o'qiyotganlariga to'lov-kontrakt summalari davlat tomonidan to'lab berilayotganini har birimiz ko'rib, foydalanib yuribmiz. Bunday harakatlar allaqachon samara bera boshladi, xususiy sektorda ham, davlat tashkilotlarida ham ayol xodimlarning ulushi borgan sari ortmoqda. Ayniqsa, zamonaviy kasblarni tanlayotganlar orasida xotin-qizlar ulushi ko'zni quvontiradi. Ya'ni zamonaviy kasblar bilan uyda o'tirgan holda daromad topish mumkin, bu esa ularning ham pul topishga, ham ro'zg'or yumushlarini baravar olib borishiga imkon yaratadi.

Tashabbuslarning mohiyatini birma-bir ko'rib chiqdik, samarasining esa har kun guvohi bo'lyapmiz. Demak, besh muhim tashabbusni hech ikkilanmay to'liq quvvatda ishladi va ishlamoqda, deya olamiz. Ya'ni bu harakatlar oradan o'tgan yillarda samarali ekanini isbotladi. Bu naqadar to'g'ri yo'l tanlaganimizdan dalolat. Oradan bir necha yillar o'tib, tag'in shu mavzuga qaytganimizda esa natijalarimiz bundan ham kattaroq bo'layotganini e'tirof etishimiz shubhasiz. Zero, yaxshi niyatlar bilan boshlangan, sobitqadamlik bilan amalga oshirilgan, oshirilayotgan tashabbuslar hamisha samarador bo'ladi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 4583.  
39932 nusxada bosildi.  
Hajmi — 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov  
Musahhih: Nasiba Abdullayeva  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzili:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.  
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.  
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

O'za yakuni — 00:55 Topshirildi — 01:15

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

